

## TA'LIM TIZMINI TUBDAN O'ZGARTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Mingbayev Samandar Abdutemir o'g'li

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, Jizzax, O'zbekiston

E-mail: [baxrom3500@gmail.com](mailto:baxrom3500@gmail.com), [samandarmingboyev023@gmail.com](mailto:samandarmingboyev023@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqola jamiyat hayotida muhum o'rin tutgan va iqtisodiyotning bosh bo'g'imi hisoblangan ta'lif tizmini tubdan o'zgartirish chora-tadbirlari, ularni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan yangi g'oyalar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'lar:** *ta'lif tizmi, innovatsiyalar, insoniyat, jarlik, uy, iqtisodiy rivojlanish, insoniyatning salbiy va ijobjiy hislatlari, demokratiya, jamiyat, chig'iriqlar.*

## MEASURES TO RADICALLY CHANGE THE RIDGE OF EDUCATION

Khaydarov Baxrom Kholmuradovich, Mingbayev Samandar Abdutemir ugli

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

E-mail: [baxrom3500@gmail.com](mailto:baxrom3500@gmail.com), [samandarmingboyev023@gmail.com](mailto:samandarmingboyev023@gmail.com)

**Abstract.** this article is about measures to radically change the educational ridge, which has an important place in the life of society and is considered the main link in the economy, new ideas related to their application.

**Keywords:** *educational ridge, innovation, humanity, cliff, home, economic development, negative and positive emotions of humanity, democracy, society, shells.*

Inson - bu sayyoradagi yagona ongli jonzotdir. Chunki faqat inson o'z fikriga ega va o'z xatolaridan xulosa chiqara oladi. Shunday ekan inson hayoti davomida ongini shakllantirishdan hech qachon to'xtamasligi kerak. Buyuk muttafakkirlar aytganidek "Beshikdan to qabrgacha ilm izla". Biz inson ilm olishi kerak deb aytyapmiz, o'zi jamiyatda ilm olish uchun qanday sharoitlar mavjud va yana qanday imkoniyatlar yaratilishi lozimligi haqida gap olib borsak. Dunyoning har bir davlatida ta'lif tizmining turli xil shakllarini ko'rishimiz mumkun. Misol tariqasida: Germaniyada oliy ta'lif berishning induvidal shakli tanlangan unga ko'ra har bir talaba o'ziga yoqqan o'qituvchining ma'rzasiga kiradi. Shuning uchun o'qituvchinlar iloji boricha ma'ruzalarini qiziqarli o'tishga harakat qiladi.

Bashqa bir davlatda o'rta ta'lifda o'g'lil bolalar va qiz bolalarning maktablari alohida. Bu esa ta'lif berishda bir qancha qulayliklarni yaratadi. Bulardan eng muhim balog'at yoshiga yetganlar o'rtasidagi ishqiy munosabatlarga chek qo'yilishidir. O'zimizning O'zbekistonda esa ta'lifning eng oddiy shakli tanlab olingan. Xo'sh bu tizimlar ta'lif olish uchun yatarlimi yoki boshqa tizimdan foydalanish kerakmi. Mening fikrimcha ta'lif tizmi quyidagicha bo'lishi kerak deb hisoblayman. Misol tariqasida butun dunyoni yoki biror bir davlatni, xususan O'zbekistonni olsak. Tasavvur qiling bir jarlik bor, u yer juda qorang'u va uning boshi ko'rinxaydi. Xuddi tubsiz jarlikdek. Huddi o'sha jarlikning eng tagida bir uy bor. Bu uy O'zbekitondir. O'sha uyni yuqoriga qarab bir necha mingta chig'iriq tortmoqda. Ularning ichida uyning markazidan to'rtta bir-biridan qalin ipli chig'iriqlar tortmoqda deb hisoblasak. Bu chig'iriqlarning iplari qalnilik darajasiga qarab quyidagi ta'lif turlariga bo'linadi. Bular: Boshlang'ich ta'lif, o'rta ta'lif, o'rta maxsus ta'lif va oliy ta'lif. Qolgan barcha chig'iriqlar mamlakat iqtisodiyotining turli xil shakllaridir. Misol uchun: tadbirkorlik, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, hattaki jinoyatchilik ham va shunga o'xshash bashqa narsalar ham hisoblanadi. Endi tasavvur qilishga o'tsak. Bu chig'iriqlarning barchasi uyni yuqoriga tortadi. Ya'ni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiradi. Shu davrgacha dunyoning barcha mamlakatlarda bu chig'iriqlar bir xil tarzda tortilib kelingan va tortilib kelinayapdi ham. Har bir davlatning yagona va bitta maqsadi bu yuqoriga chiqib olish. Yuqorida butun insoniyat orzu qilayatgan barcha narsalar bor. Ammo dunyoning barcha davlatlari yuqoriga chiqishda insoniyatning barcha

hislatlarini(salbiy va ijobjiy) birga olib chiqmoqda, bu esa rivojlanishning eng cho'qqisida ham jinoyatchilik, yetishmovchilik, iqtisodiy tanglik va gendir tenglikning yo'qligi kabi salbiy oqibatlar bo'lishi mumkun.

Shuning uchun insoniyat rivojlanishida o'zining salbiy hislatlaridan vos kechishi kerak. Bizning fikrimizha ta'lim buning eng oqilona yo'lidir. Agar uyni to'rtta ta'lim chig'iriqlari tortsa, uy hech qayoqqa ovimasdan to'g'ri yuqoriga olib chiqadi. To'g'ri bu juda hafli, chunki boshqa chig'iriqlar uyni tartmaydi. Ta'lim chig'iriqlarga bor kuch berilsa, u tezlik bilan uyni yuqoriga olib chiqadi. U shu qadar tezlik bilan ko'tariladiki, boshqa chig'iriqlar ta'lim chig'iriqlariga tenglasholmay, ortda qolib ketadi. Bunda insoniyatning barcha yaxshi va yomon hislatlari o'tmishda qoladi. Yuqoriga faqat ta'lim bilan sug'orilgan insonlar chiqadi. Bir o'ylab ko'rsak iqtisodiyotning balki jamiyatning birinchi bo'g'imi ta'lim hisoblanadi. Insoniyatning rivojlanishida ta'limning ahamyati beqiyos. Lekin ta'limsiz hayot bo'lmaydi. Agar insoniyat o'sha tubsiz jarlikdan faqat ta'lim kuchi bilan chiqib olsa, so'ng u yerda hayotning eng yuqori shakli vujudga keladi. Haqiqatan ham bu yo'l juda hafli, chunki uyni o'rtasidan yuqori tezlik bilan tapaga tortsak, u yuqoriga chiqib bo'lganda so'ng birdan to'xtayda va juda qattiq silkinish bo'ladi. Shunday bo'lsada insoniyat yuqoriga chiqib bo'ldi. Endi pastga tushmaydi.

Horizgi iqtisodiyot bo'yicha ketsak oxiri borib uy qiyshayadi va uning o'ng tarafidagi ijobjiy hislat chig'iriqlari uzulib, uy yana pastga, o'sha insoniyat endi boshlangan davrga qaytadi. Buning isboti ham bor. Siz bu dunyodagi birinchi avlodman deb o'ylasangiz qattiq adashgan bo'lasiz. Chunki insoniyat bundan oldin ham bo'lgan, rivojlangan va yana pastga tushgan. Buning yaqqol misoli sifatida afsungarlikni ko'rsatishimiz mumkun. O'zingiz bir o'ylab ko'ring, nega afsungarlar hazilda biz yashayotgan dunyoda emas balki o'tmishda bo'lgan. Chunki o'tmishda insoniyat endi boshlangan davrda, undan oldin rivojlanib qulagan dunyo qoldiqlari bor. Odamlar o'laydiki inson afsungarlik qilolmaydi deb, lekin dunyo shuchalik rivojlanadiki, afsungarlik insoniyat uchun odatiy holga aylanib qoladi. Misol uchun Amir Temur davriga borib, telefonni ko'rsatsangiz ular hayron qoladi. Chunki u davrda telefon ular uchun g'ayraoddiy narsadir. Hullas gapning lo'ndasini aystsak. Ta'limda ko'p narsa bor, hammasi ta'limga bog'liq. Agar insoniyat ta'limga huddi men aytganidek e'tibor bersa, jamiyat orzu qilayatgan o'sha davrga yetadi. Ammo biz hozir demakratik rivojlanish yo'lidamiz. Bu yo'l insoniyatni yuqoriga olib chiqish o'rniqa uni pastga olib boradi. Misol uchun O'zbekiston va AQSh ni solishtirsak. O'zbekistonda jinoyatchilik bor, AQShda ham bor. O'zbekistonda kambag'allar va uyi yo'q ko'chada yotadiganlar bor, AQSh da ham bor. Endi o'ylab ko'rsak, insoniyat eng yomon salbiy hislatlari O'zbekistonda ham AQSh da ham bor. Demak AQSh O'zbekistondan iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha 100 yil oldindan bo'lsa ham unda O'zbekistondagi barcha jihatlari bor. Huddi bir kars bor. Bir taqsim ikki bu O'zbekistonda deb olsak. Yana bitta kasr bor. U besh yuz taqsim ming. Buni esa AQSh deb olsak. Ikkalasi bir biridan tubdan farq qiladi. AQSh ko'rgan o'ooo deydi, O'zbekistonni ko'rgan ha deydi, lekin ikkalasining ham qiymati bir xil. Demak insoniyat yuqoriga ko'tarilgan yo'q, balki bir joyda turibdi. Shundan xulosa chiqarsak bo'ladiki, insoniyatni rivojlantirish uchun hozirgi tizim umuman to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun biz ko'praq ta'limga e'tibor qaratishimiz kerak. O'zi demakratiya nima va uning ijtimoiy hayotdagagi ahamyati qanday. Demakratiya bu raqobat, raqobat bu kurash, kurash bu g'olib va mag'lublardan iborat bo'ladi. Endi o'ylab ko'rsak insoniyatning iqtisodiy rivojlanishida raqobat bo'lsa ya'nii g'olib va mag'lub bo'lsa. G'olib jamiyat hoyotining eng obro'li insoni, mag'lub esa jamiyatning singan shaxsi hisoblanadi. Demak g'olib bo'lgan odam mazza qilib yashaydi. Lekin mag'lubchi u endi jamiyatda qanday yashaydi. Ko'pchiliklar aytadiki mag'lub birinchi yiqilishidan so'ng o'zining xatolaridan xulosa chiqaradi va g'olib bo'lismiga harakat qiladi deydi. Ammo bu fikr hato. Chunki shunday kurashlar bo'ladiki, ularda mag'lub bo'lgan inson qayta oyoqqa tura olmaydi. Buni butun insoniyatning obro'li insonlari biladi, va uni hech kimga aytgisi kelmaydi. Nima uchunligini bilasizmi, chunki mag'lub bo'lmasa g'olib ham bo'lmaydi. Hamma Yevropadagi hayot zo'r deydi, lekin nima uchun zo'rligiga qiziqib ko'rmaydi.

Ota-bobolarimiz aytganidek uzumini yegin-u bog'ini surushtirma. Huddi shunday O'zbekiston aholisi bunday og'ir mehnat qilgani uchun Yevropa aholisi mazza qilib yashayapdi. Ya'nii boy bo'lishi uchun kambag'al kerak. Kambag'alsiz boy bo'lmaydi. Shunday qilib insoniyat ushbu qiyofada. Hamma aytadiki inson ongli jonzot deydi, ammo hayvondan zarracha farq qilmaydi. Hayvondan o'tsa o'tadi, lekin qolishmaydi. Insoniyatning bunchalik bo'lishiga asosiy sabab bu boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Chunki insoniyatning qon-qoniga raqobat bilan yashash sigib ketgan. Uni o'zgartirib bo'lmaydi. Qachonki insoniyatga boshlang'ich ta'lim to'g'ri berilsa, shundagina u jamiyat eng zo'r bo'ladi. Shu va shu kabi sabablari inobatga olgan holda insoniyat ta'limga katta e'tibor berishi kerak. Faqat shundagina jamiyat o'sha eng rivojlangan davrga, ya'nii cho'qqiga

chiqadi. Shuning uchun g'o'zallik emas balki ta'lif dunyoni qutqaradi. Hulosam shuki ta'lif tizmiga e'tibor kuchaytirish kerak. Zero ta'lif dunyoni cho'qqiga olib chiqadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 634-635.
2. Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.
3. Хайдаров Б. Иқтисодий ислоҳотларни ривожлантиришда камбағалликни қисқартириш //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.
4. Баҳром Ҳ. Ҳ. Бизнесни режалаштириш тартиблари // Pedagogs jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.
5. Xaydarov B. Impact of intellectual property protection on the digital economy //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.
6. Xaydarov B.X., Xudayarov R.T. (2022). Raqamli iqtisodiyot biznesni rejalashtirish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130>.
7. Xaydarov B.X., Saitov S.A. (2022). Raqamli iqtisodiyotda kichik biznesnning o'rni. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131>.
8. Xaydarov B.X.. (2022). Raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya va auditni o'rni. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/135>
9. Xaydarov B. (2022). Impact of intellectual property protection on the digital economy. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 163–174. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/317>

